

## SAFRO-GEP QURUQ EKSTRAKTINING SURUNKALI ZAHARLILIGINI O'RGANISH

**Salimova Nafisa Chori qizi**

**Sultanova Ra'no Xakimovna**

**Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi**

**e-mail: salimovanafisa970@gmail.com, tel: (97) 333-92-11**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.16994422>**

**Dolzarbligi.** Bugungi kunda fitoterapiya jigar kasalliklarini davolashda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'simlik asosida tayyorlangan preparatlar tabiiyligi va nisbatan kam nojo'ya ta'sirlari bilan ajralib turadi. Ammo ularning uzoq muddatli qo'llanish xavfsizligi, ya'ni surunkali zaharlilik darajasini o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shunday preparatlardan biri – Safro-gep quruq ekstrakti bo'lib, u jigar faoliyatini yaxshilash va safro ajralishini normallashtirishda qo'llanishi mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'tkazilgan tadqiqotlar Safro-gep quruq ekstrakti surunkali qo'llashda toksik ta'sir ko'rsatmasligini, terapevtik dozalarda xavfsizligini tasdiqladi. Bu esa mazkur preparatni klinik amaliyotda jigar kasalliklarini davolash va profilaktikasida samarali qo'llash imkonini beradi.

**Usul va uslublar.** Tajriba laboratoriya kalamushlarida olib borildi. Preparat peroral yo'l bilan 90 kun davomida turli dozada qo'llanildi. Tajribalar davomida hayvonlarning xulqi, vazni, oziq-ovqat va suv iste'moli muntazam kuzatib borildi.

Tajriba yakunida qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlar (ALT, AST, umumiy oqsil, kreatinin, bilirubin) tekshirildi. Shuningdek, jigar, buyrak va oshqozon-ichak tizimiga oid morfologik o'zgarishlar histologik usulda o'rganildi.

**Olingan natijalar.** Preparatning terapevtik dozalarida qo'llanishi hayvonlarning umumiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

Tana massasi o'sishi fiziologik me'yorlarda kechdi.

Qon biokimyoviy va gematologik ko'rsatkichlarida klinik ahamiyatli og'ishlar qayd etilmadi.

Jigar, buyrak, yurak o'pka ichaklar bosh miyalarda va ichki a'zolarida gistologik o'zgarishlar kuzatilmadi.

Yuqori dozalar uzoq muddat berilganda ham preparatning o'tkir toksik ta'siri aniqlanmadi.

**Xulosa:** O'tkazilgan tadqiqotlar Safro-gep quruq ekstrakti surunkali qo'llashda toksik ta'sir ko'rsatmasligini, terapevtik dozalarda xavfsizligini tasdiqladi. Bu esa mazkur preparatni klinik amaliyotda jigar kasalliklarini davolash va profilaktikasida samarali qo'llash imkonini beradi.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Миронов А.Н., Трахтенберг И.М. Доклинические исследования лекарственных средств. – Москва: Гриф и К, 2012. – 944 с.
2. OECD Guidelines for the Testing of Chemicals. Chronic Toxicity Studies. OECD, 2018.

3. Хабриев Р.У. Руководство по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ. – Москва: Медицина, 2005. – 832
4. Грызунов Ю.А., Кузнецов С.О. Токсикология лекарственных средств. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2016. – 480 с.
5. James T. B., Klaassen C. D. Casarett and Doull's Toxicology: The Basic Science of Poisons. – New York: McGraw-Hill, 2021
6. O'zbekiston Respublikasi SSV. Farmakologik preparatlarni toksikologik tadqiqotdan o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2020.
7. WHO. Guidelines for assessing the safety and quality of herbal medicines with reference to contaminants and residues. – Geneva: World Health Organization, 2007.